

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning asosiy  
jihatlari**

**RAXMONOV DONIYOR IXTIYORJON O‘G‘LI**

*Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlarda bir ob’ektga ikki tomonlama soliq solish muammosiga duch kelmoqdalar, bu esa turli mamlakatlarda biznes yuritishning iqtisodiy maqsadlariga nomuvofiq ekanligidan daololat beradi. Savdo aylanmasini murakkablashtirishi va natijada biznesning rivojlanishiga to’sqinlik qilishi ham mumkin.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro biznes, xalqaro integratsiya, xalqaro bozor, xalqaro savdo, kapital, soliq to‘lovchi, resident va norizident.

**Annotation:** Organizations operating in several countries face the problem of double taxation of the same object in several countries at the same time, which indicates that it is incompatible with the economic goals of doing business in different countries. It can also complicate the turnover and, as a result, hinder the development of the business.

**Key words:** international tax relations, international business, international integration, international market, international trade, capital, taxpayer, resident and non-resident.

**Аннотация:** Организации, работающие в нескольких странах, сталкиваются с проблемой двойного налогообложения одного и того же объекта в нескольких странах одновременно, что свидетельствует о несовместимости с экономическими целями ведения бизнеса в разных странах. Это также может усложнить товарооборот и, как следствие, затруднить развитие бизнеса.

**Ключевые слова:** международные налоговые отношения,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

*международный бизнес, международная интеграция, международный рынок, международная торговля, капитал, налогоплательщик, резидент и нерезидент.*

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu xalqaro savdoning globallashuvi va xalqaro moliya-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvidir. Har bir davlat iqtisodiy jihatdan xalqaro integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda: o‘sib borayotgan ko‘plab davlatlarning kompaniyalari xalqaro bozorlarga faol kirib bormoqda. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy xususiyati investorlar uchun jozibador bo‘lgan va shu bilan birga milliy budjetlarning fiskal ehtiyojlarini qondirish uchun soliq muhitini yaratish maqsadida milliy soliq tizimlarini birlashtirishdir.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi tadbirkorlik subyektlariga dunyoning turli mamlakatlarida daromad olish imkoniyatini yaratadi, davlat chegaralari esa biznes uchun ko‘rinmas holga aylanib bormoqda va bu jarayonlar doimiy rivojlanishi ahamiyatlidir.

Biroq, dunyoning har bir mamlakati rezidentlari va nerezidentlari tomonidan olingan daromadlar bo‘yicha soliq yig‘ishga intiladi. Soliq to‘lash majburiyati nafaqat davlat soliq rezidentlariga, balki uning hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, mulk yoki mulkiy huquqlardan foydalanish yoki uning turli shakllariga investitsiya qilish yo‘li bilan daromad oladigan nerezident xorijiy shaxslarga ham tegishli hisoblanadi.

Bir nechta mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlarda bir ob’ektga ikki tomonlama soliq solish muammosiga duch kelmoqdalar, bu esa turli mamlakatlarda biznes yuritishning iqtisodiy maqsadlariga nomuvofiq ekanligidan daololat beradi. Savdo aylanmasini murakkablashtirishi va natijada biznesning rivojlanishiga to’sqinlik qilishi ham mumkin.

Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni keng ma’noda ikki (yoki undan

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ortiq) mamlakatlarda bir xil soliq to‘lovchiga bir xil ob’ekt bo‘yicha va bir xil davrlar uchun solishtiriladigan soliqlarning qo‘llanilishi sifatida ta’riflash mumkin. Uning tovar va xizmatlar almashinuviga, kapital, texnologiya va odamlar harakatining halokatli oqibatlari shunchalik yaxshi ma’lumki, bu erda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish yo‘lidagi ikki tomonlama soliqqa tortishni keltirib chiqaradigan to‘sislarni bartaraf etish muhimligini ta’kidlashning hojati yo‘q.

Tadqiqotchilar tomonidan, qilingan izlanishlarga ko‘ra dunyoda ko‘pchilik davlatlar ikki tomonlama soliqqa tortish muammosi orqali - xalqaro savdo, kapitalning erkin harakatlanishi va xalqaro bozorlarning rivojlanishi kabi muhim iqtisodiy jarayonlarda turli-tuman to‘sislarga duch kelmoqdalar. Shu sababli, turli davlat sub'ektlari o‘z rezidentlari va norezidentlarini xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish muammosini hal qilish maqsadida, ichki qonun hujjatlarini qabul qilish, shuningdek, soliqqa tortish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalar tuzish chora-tadbirlarini ko‘rmoqdalar.

Ikki tomonlama soliqqa tortishga barham berish tizimning eng muhim tarkibiy qismlari xorijiy tashkilotlar va mahalliy tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatini soliqqa tortishning alohida tartibini belgilash hisoblanadi.

So‘nggi paytlarda xalqaro soliqqa tortish masalalariga ilmiy qiziqish ortib bormoqda, bu esa soliq islohotining faol amalga oshirilishi, shuningdek, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish muammolarining murakkabligi va mamlakat iqtisodiyoti uchun amaliy ahamiyati bilan bog‘liq. Xalqaro soliqqa tortish tizimida ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etishning aniq, iqtisodiy asosli tamoyillari va usullarini shakllantirish nafaqat budget daromadlariga, balki xorijiy manbalardan investitsiyalar oqimiga va moliyaviy tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirishga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Soliq qonunchiligini takomillashtirish va mamlakatda olib borilayotgan soliq islohotining izchilligini ta’minalashga xalqaro soliq tizimining ilmiy asoslarini yaratish yordam beradi.

Hozirgi vaqtda ko‘plab mamlakatimiz soliq siyosati vositasi sifatida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmi mukammal emas. Bu ko‘p jihatdan soliq siyosatining ilmiy yondashuvga emas, balki amaliy zaruratiga asoslanishi bilan bog‘liq, shuning uchun ham ba’zi yangiliklar har doim ham mavjud vaziyatga mos bo‘lavermaydi. Bu esa mazkur muammoga yanada puxta o‘ylangan holda yondashishni, shuningdek, ikki tomonlama soliqqa tortishga barham berish kabi soliq siyosatining muhim vositasini boshqarish vakolatiga kiruvchi davlat organlari tomonidan tegishli qarorlarni mutanosib ravishda qabul qilishni taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Лещенко, С.К. Правовой механизм устранения двойного налогообложения / С.К. Лещенко // Промышленно-торговое право. –2008. – № 3. – С. 64-75.
2. Погорлецкий, А.И. Международное налогообложение: учебник / А.И.Погорлецкий. - СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2006. - С. 108.
3. Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
4. Ogli, T. B. Q. (2021). XO’JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARNING TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250..
5. Turanboyev, B. (2024). O’ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
6. Turanboyev, B. (2024). ILG’OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.

### ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

7. Boburjon Turanboyev Qodirjon o‘g‘li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o‘g‘li. (2023). MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60.